



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Namangan viloyatida
kichik tadbirkorlik
2022- yil yanvar-mart**




Dastlabki ma'lumotlar


Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-mart oylarida kichik
tadbirkorlik subyektlarining
YaHMDagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHMDagi** ulushi **63,1** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,0** birlikni tashkil qildi.


2022- yilning yanvar-martida **1379** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,2** foizga kam demakdir.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **433** ta, sanoatda **383** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **261** ta, yashash va ovqatlanishda **58** ta, qurilishda **57** ta, tashish va saqlashda **43** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-martida
kichik tadbirkorlikning
iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

96,4



Sanoat

37,6



Qurilish

92,9



Investitsiya

75,5



Savdo

90,5



Xizmatlar

66,0



Eksport

39,5



Import

73,7



Faoliyat yuritayotgan kichik
korxona va mikrofirmalar soni


29 526

Yangi tashkil etilgan kichik
korxona va mikrofirmalar soni

1 379

2022- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar



2022- yil yanvar-martida
iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha faoliyat yuritayotgan
kichik korxona va
mikrofirmalar, % da

Savdo

35,3%



Sanoat

24,4%



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

9,6%



Qurilish

8,2%



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

5,2%



Tashish va saqlash

3,8%



Axborot va aloqa

1,6%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish

2,0%



Boshqa faoliyat turlari


9,9%



2020- y. 2021- y. 2022- y.

Yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik
korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida faoliyat
yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




■ 2021- y.

■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021- y. yanvar-mart

■ 2022- y. yanvar-mart

2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri – 29,9 %, Chust tumani – 9,2 %, Uchqo'rg'on tumani – 8,3%, Chortoq tumani – 7,4 %, Norin va Yangiqo'ron tumanlari – 7,2 %, Uychi tumani - 6,7 %, To'raqo'rg'on tumani - 6,1 %, hissalarga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
433 ta

Sanoatda
383 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
261 ta

Qurilishda
57 ta


Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 10,0 birlikni tashkil etdi.




Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-aprel holatiga ko'ra*



2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida 14,5 birlik, Namangan tumanida 11,1 birlik, Uchqo'rg'on tumanida 10,0 birlik, Mingbulloq tumanida 9,7 birlik, Uychi tumanida 8,9 birlikni tashkil etgan.



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida 14,5 birlik, Namangan tumanida 11,1 birlik, Uchqo'rg'on tumanida 10,0 birlik, Mingbulloq tumanida 9,7 birlik, Uychi tumanida 8,9 birlikni tashkil etdi.


Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra*

Eng yuqori ko'rsatkich
Namangan tumani - 14,5 birlik.

o'rtacha ko'rsatkich
Uychi tumani - 8,9 birlik.

Past ko'rsatkich
Yangiqo'rg'on tumani - 6,5 birlik.

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *




* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 50,3 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 39,5 % ini tashkil etdi.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar – mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0 %, Namangan shahriida – 58,2 %, Pop tumanida – 56,3 %, Uychi tumanida – 51,0 %ni, eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida – 2,2 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **127,2** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **73,7** % ini tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlarida – 100,0 %, Pop tumanida – 93,6 %, Kosonsoy tumanida – 87,5 %, Namangan shahrida – 84,4 %, Uychi tumanida – 80,5 %. Eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida - 12,4 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1275,1** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (532,4 mlrd. so'm), Mingbuloq (133,5 mlrd. so'm), Uychi (107,9 mlrd. so'm), Namangan (95,2 mlrd. so'm) va To'raqo'rg'on (91,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Norin tumanida (31,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi




2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **37,6 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0%), Mingbuloq tumani (90,1%), Uychi tumani (60,6%), Pop tumani (54,9%), Namangan shahri (44,0%) tashkil etdi. To'raqo'rg'on tumanida (11,9%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3222,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **90,5 %** ini tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **5,2 %** ga o'sishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (1570,7 mlrd. so'm), Chust (265,2 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (177,5 mlrd. so'm), Pop (174,3 mlrd. so'm), Uychi (159,3 mlrd. so'm) hamda Namangan va Kosonsoy (140,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1064,1** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **92,9 %** ini tashkil etdi. o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **104,7 %**ni tashkil qildi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (245,8 mlrd. so'm), Chortoq (68,3 mlrd. so'm), Uychi (68,1 mlrd. so'm), Namangan (64,4 mlrd. so'm), Pop (59,7 mlrd. so'm), Kosonsoy (58,7 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (45,9 mlrd. so'm) hamda Uchqo'rg'on (44,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati


Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1975,9** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,0 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **112,3 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (447,0 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (158,3 mlrd. so'm), Pop (154,2 mlrd. so'm), Chust (152,7 mlrd. so'm), Chortoq (145,9 mlrd. so'm), Namangan (144,4 mlrd. so'm) va Kosonsoy (140,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,5 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 81,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,1 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,2 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil qildi.


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada 1247 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 383(30,7%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 805(64,6%) tasi subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 59(4,7%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,6 % (83 ta), sanoatda – 19,6 % (244 ta), qurilishda – 8,4 % (105 ta), savdoda – 38,2 % (476 ta), xizmatlar sohasida – 27,2 % (339 ta) ni tashkil etdi.


2022- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (438 ta), Pop tumani (108 ta), To'raqo'rg'on tumani (85 ta), Namangan va Uychi (82 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning I choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 34,9 %ni, sanoatda 32,4 %ni, xizmatlar sohasida 28,3 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 78,3 %ni, qurilishda 69,5 %ni, xizmatlar sohasida 67,6%ni tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda 40,2 %ni, savdoda 40,1 %ni, xizmatlar sohasida 36,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 68,7 %ni, qurilishda 63,8 %ni, xizmatlar sohasida 61,2 %ni tashkil etdi.

